



QURILISH ISHLARI

2021- yil yanvar oyida

Joriy yilning yanvar oyida jami 180,5 mlrd. soʻm qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 100,9 % ni tashkil qildi.



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 1,0 mlrd. soʻm qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 48,3 % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 161,5 mlrd. soʻmni yoki jami qurilish ishlarining 89,5 % ni tashkil etib, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 101,1 % ni tashkil etdi.


Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 18,0 mlrd. soʻmni tashkil etib oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʻati 105,3 % ni tashkil qildi.



Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu-oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 68,7 % ni tashkil etadi.



Fuqarolik obyektlarini qurilishi bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 23,2 % ni tashkil etadi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 8,1 % to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

(jamiga nisbatan, % da)

2020- yil yanvar

9,4



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

23,6



Fuqarolik obyektlarini
qurish

67,0



Bino va inshootlarni
qurish

2021- yil yanvar

8,1



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

23,2



Fuqarolik obyektlarini
qurish

68,7



Bino va inshootlarni
qurish



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topadi.




Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari tarkibi

(mlrd. so‘m)

	Jami qurilish ishlari	shu jumladan, qurilish ishlari tarkibi bo‘yicha		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik korxonalar va mikrofirmalar	norasmiy sektor
Sirdaryo viloyati	180,5	1,0	161,5	18,0
<i>shaharlar</i>				
Guliston	68,3	0,1	64,7	3,5
Shirin	12,1	-	11,8	0,4
Yangiyer	12,9	-	12,0	0,8
<i>tumanlar</i>				
Boyovut	9,3	0,2	7,3	1,9
Guliston	5,5	0,1	4,0	1,3
Mirzaobod	13,6	0,2	12,4	1,1
Oqoltin	6,9	-	6,0	0,9
Sardoba	3,9	-	2,9	1,1
Sayxunobod	10,2	0,1	9,3	0,7
Sirdaryo	16,5	0,1	10,7	5,6
Xovos	21,3	0,2	20,4	0,7

Hududlarda qurilish ishlarining o‘shish sur‘atlari

(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahriga to‘g‘ri kelib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlarining o‘shish sur‘ati 101,5 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Boyovut tumanida 116,7 % ni tashkil qildi.

Qurilish ishlarining hududlar kesimida yuqori o‘shish sur‘ati Guliston tumanida kuzatilgan bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 119,4 % ni tashkil qildi.




Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)

Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 161,5 mlrd. so'm yoki jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 89,5 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,1 % ni tashkil qildi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1,0 mlrd. so'm yoki jami qurilish ishlaridagi ulushi 0,5 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 48,3 % ni tashkil qildi.


Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish ishlari hajmi 18,0 mlrd. so'm yoki jami qurilish ishlarining 10,0 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,3 % ni tashkil qildi.






Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)



○ Nodavlat mulkchilik shakli



○ Davlat mulkchilik shakli

Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 7,2 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 4,0 % ni tashkil qildi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,1 % punktga kamaydi.




Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 173,3 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 96,0 % ni (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,1 % punktga ko‘payish) tashkil qildi.



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilgan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Guliston shahriga 37,8 % ga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda Xovos tumaniga 11,8 %, Sirdaryo tumaniga 9,1 %, Mirzaobod tumaniga 7,6 % va Yangiyer shahrida 7,1 % dan to'g'ri keldi.

- Guliston sh.
- Shirin sh.
- Yangiyer sh.
- Boyovut
- Guliston
- Mirzaobod
- Oqoltin
- Sardoba
- Sayxunobod
- Sirdaryo
- Xovos



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi.

Aloqa telefoni: (67) 225-02-37
(67) 236-86-27

